



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA HUQUQIY MADANIYAT EVOLYUSIYASI

Soliyev Abdullo Olimjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining huquqiy tizim va huquqiy madaniyat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Muallif an'anaviy huquqiy qadriyatlarning raqamli dunyoda saqlanishi va "huquqiy axborot madaniyati" tushunchasining shakllanishi masalalarini ko'rib chiqadi. Shuningdek, maqolada huquqiy jarayonlarni algoritmizatsiya, "raqamli huquqlar"ning paydo bo'lishi hamda Xitoy va AQSh kabi davlatlarning, xususan, Xitoyning "Aqlli sudlar" (Smart Courts) tizimi tajribasi bayon etilgan. Tadqiqotda raqamlashuv sharoitida aholining raqamli savodxonligi va huquqiy ongi uyg'unligini oshirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Raqamli transformatsiya, huquqiy madaniyat, huquqiy axborot madaniyati, raqamli huquqlar, aqlli sudlar, Industriya 4.0, raqamli ong, huquqiy texnologiyalar (Legal Tech).

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЭВОЛЮЦИЯ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Солiev Абдулло Олимжон угли

Андижанский государственный педагогический институт, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье анализируется влияние процессов цифровой трансформации на развитие правовой системы и правовой культуры. Автор рассматривает вопросы сохранения традиционных правовых ценностей в цифровом мире и формирования концепции «правовой информационной культуры». Также в статье описываются алгоритмизация правовых процессов, возникновение «цифровых прав» и опыт таких стран, как Китай и США, в частности, китайская система «Умных судов» (Smart Courts). В исследовании обосновывается необходимость повышения цифровой грамотности и правового сознания населения в условиях цифровизации.

Ключевые слова: Цифровая трансформация, правовая культура, правовая информационная культура, цифровые права, умные суды, Индустрия 4.0, цифровое сознание, юридические технологии (Legal Tech).

DIGITAL TRANSFORMATION AND THE EVOLUTION OF LEGAL CULTURE

Soliyev Abdullo Olimjon o'g'li

Andijan State Pedagogical Institute, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the impact of digital transformation processes on the evolution of the legal system and legal culture. The author examines the preservation of traditional legal values in the digital world and the formation of the "legal information culture" concept. Furthermore, the article describes the algorithmization of legal processes, the emergence of "digital rights," and the experiences of countries like China and the USA, specifically China's "Smart Courts" system. The study justifies the need to enhance the harmony between digital literacy and legal consciousness of the population in the context of digitalization.

Keywords: Digital transformation, legal culture, legal information culture, digital rights, smart courts, Industry 4.0, digital consciousness, Legal Tech.

Jahonda kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Huquq tizimi va huquqiy madaniyat ham bundan mustasno emas. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, virtual reallik sharoitida "raqamli dunyo qonunlari" tabiiy dunyo qonunlari bilan raqobatlasha boshladi hamda an'anaviy huquqning ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi o'rni ma'lum darajada pasaydi. Shu bilan birga, muhaqqiqlar raqamli davrda ham huquqning jamiyatdagi rolini sun'iy ravishda kamsitmaslik lozimligini ta'kidlamogdalar [1]. Demak, raqamlashuv sharoitida huquqning asosiy qadriyatlari va tartibga soluvchi vazifalari saqlanib qolishi muhimdir.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat huquqiy normalar yaratilishining yangi sohalarini yuzaga keltirmoqda, balki huquqshunoslik fanining o'ziga xos obyekti va predmetini ham qayta

ko'rib chiqishga olib kelmoqda [1]. "Industriya 4.0" deb ta'riflanayotgan sanoat va raqamli inqilob natijasida ijtimoiy hayot, madaniyat, huquq, ong va qadriyatlarda yuzaga kelayotgan transformatsiyalar yangi turdagi madaniyat shakllanishiga asos bo'lmoqda [2]. Xususan, ayrim olimlar huquqiy madaniyat doirasida "huquqiy axborot madaniyati" (legal information culture) tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, uning nazariy asoslarini shakllantirishga harakat qilmoqdalar. Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, "raqamli davrgacha bo'lgan huquqiy madaniyat" bosqichi yakunlangan bo'lib, u zamonaviy jamiyat uchun yangi — huquqiy axborot madaniyatining poydevori vazifasini o'tamoqda. Ya'ni, avlodlar tarixi davomida to'plangan insoniyatning huquqiy tajribasi va qadriyatlari keyingi raqamli bosqichda ham insonparvarlik mazmunini saqlagan holda davom etmog'i lozim. Raqamli transformatsiya sharoitida evolyutsiyalashib borayotgan huquqiy madaniyat aynan shu merosga tayangan holda yangi qirralarga ega bo'lmoqda [5].

"Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida faqat mehnatning mazmunida emas, balki uning xususiyatida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Jismoniy mehnatga qaraganda aqliy mehnat salmog'i ortadi. Malakasiz mehnat o'rnini ko'proq malakali mehnat egallaydi. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati shakllari tarqaladi. Mehnat asosan ilmiy bilimlarni ro'yobga chiqarish negizida amalga oshiriladi. Umuman olganda, mehnatning "intellektuallashuvi" sodir bo'ladi va uning ijodiy xususiyati ortadi" [3:48–50].

Demak, raqamli texnologiyalarning jamiyatga keng joriy etilishi huquqiy madaniyatning turli jihatlariga ta'sir o'tkazmoqda. Birinchidan, huquqiy ong va huquqqa bo'lgan yondashuvlarda o'zgarish kuzatilmoqda. Masalan, internet va virtual maydonning kengayishi natijasida fuqarolar huquqiy axborotga osonroq ega bo'lishmoqda, huquqiy ma'lumotlar ommaviylashmoqda. Bu esa jamiyatda huquqiy bilim va huquqiy ong darajasini oshirish imkonini bermoqda. Boshqa tomondan, raqamlashuv davrida yangi turdagi huquqiy munosabatlar va tushunchalar shakllanmoqda. Jumladan, ayrim olimlar "raqamli huquqlar" ("сифровые права") degan kategoriya paydo bo'layotganini ta'kidlaydilar. Masalan, shaxsiy ma'lumotlar muhofazasi, internetda bo'lish huquqi kabi yangi huquqiy qadriyatlar shakllanmoqda [4:59–74]. Bunday raqamli huquqlar avvalgi bosqichlarda mavjud bo'lmagan va ular huquqiy madaniyatning yangi qirrasini aks ettiradi.

Ikkinchidan, raqamli transformatsiya huquqiy tartibga solish usullarini ham o'zgartirmoqda. Davlat va biznes tashkilotlari huquqiy jarayonlarni algoritmlashtirishga, masofaviy va avtomatlashtirilgan tartibga o'tishga qiziqish bildirmoqda, chunki bu operatsion xarajatlarni kamaytirishi va samaradorlikni oshirishi kutilmoqda. Biroq huquq sohasi konservativ tusga ega bo'lib, texnologiyalarning singib kirishi nisbatan sekin bormoqda. Ayrim baholashlarga ko'ra, bugungi kunda huquq sohasida zamonaviy axborot texnologiyalari 30 foizdan oshiqroq darajadagina joriy etilgan, onlayn huquqiy xizmatlarning ulushi esa bor-yo'g'i 4–5 foiz atrofida ekan, xolos. Shu bilan birga, huquqiy texnologiyalar (legal tech) mavzusi soha mutaxassislari orasida eng ko'p muhokama qilinayotgan yo'nalishlardan biridir [5]. Bu holat shuni ko'rsatadiki, raqamlashuv jarayonida huquq tizimi o'zgarishlarga uchrayotgan bo'lsa-da, huquqiy madaniyatda an'anaviy qadriyat va tamoyillarni saqlash hamda ularni yangi sharoitga moslashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Muhimi, raqamlashuv jarayoni fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi jamiyatdagi huquqiy bilimlar sur'atiga bevosita bog'liq. Masofaviy ta'lim, onlayn huquqiy maslahat platformalari, huquqiy axborot portallari orqali keng jamoatchilik huquqiy bilimlarni tezroq egallashi mumkin. Binobarin, bugungi kunda fuqarolar uchun huquqiy axborotni tez va oson topish imkoniyati yaratilgani huquqiy madaniyatning umumiy darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Lekin shu bilan birga, raqamli dasturlardan samarali foydalanish uchun aholining o'zini turli jihatdan tayyorlash talab etiladi. Tahlilchilar ta'kidlaydilarki, raqamlashuv murakkab jarayon bo'lib, uni samarali amalga oshirish uchun faqat davlat xizmatchilari emas, balki butun jamiyatda "raqamli ong" va "raqamli madaniyat"ni shakllantirish zarurdir. Zero, fuqarolar raqamli huquqiy xizmatlardan to'laonli foydalana bilishi uchun ularda ham ma'lum darajada raqamli savodxonlik va huquqiy ong uyg'un bo'lishi kerak.

Raqamli transformatsiyaning huquqiy madaniyatga ta'sirini yaxshiroq tushunish maqsadida Xitoy va AQSh misollarini ko'rib chiqamiz. Bu ikki davlat turli huquqiy tizim va madaniyatga ega bo'lib, raqamlashuv jarayonidagi tajribalari ham o'ziga xosdir.

Xitoy davlati sud-huquq tizimini raqamlashtirish va avtomatlashtirish borasida jahonda eng ilg'or mamlakatlardan biridir. Xususan, mamlakatda "Aqlli sudlar" (Smart Courts) deb nomlangan keng qamrovli islohot amalga oshirilmoqda. "Aqlli sud" tushunchasi Xitoy hukumati tomonidan sud hokimiyati, prokuratura va huquqni muhofaza qilish organlarini qamrab olgan holda huquqiy sohani tubdan raqamlashtirish sa'y-harakatlariga nisbatan qo'llanilgan atamadir [6]. Bu islohot doirasida sud ishlarini

yuritishga zamonaviy axborot texnologiyalari, katta ma'lumotlar tahlili, algoritmik dasturlar va sun'iy intellekt keng joriy etilmoqda. Masalan, Xitoy sudyalari yagona elektron platforma orqali ish yuritishlari, mobil ilovalar yordamida taraflarga qulaylik yaratishlari, turli huquqiy idoralar o'rtasida ma'lumot almashinuvini tezkor tashkil etishlari mumkin bo'ldi. Bunday integral tizimlar sudyalarga ishlarni boshqarishda yordam berib, da'vo arizalarini onlayn qabul qilish, jarayon ishtirokchilariga xabar berish, sud qarorlarini raqamli tarzda chiqarish kabi imkoniyatlarni ta'minlamoqda [6].

XULOSA. Raqamli transformatsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanib, huquq tizimi va huquqiy madaniyat rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi natijasida huquqiy munosabatlarning yangi shakllari, raqamli huquqlar va huquqiy tartibga solishning innovatsion mexanizmlari shakllanmoqda. Shu bilan birga, raqamlashuv huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mazmunini ham o'zgartirib, fuqarolarning huquqiy axborotga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Raqamli transformatsiya huquqiy tizim samaradorligini oshirish, sud-huquq faoliyatini avtomatlashtirish va davlat xizmatlarini qulaylashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratayotganligini tadqiqot natijalarida ko'rish mumkin. Xususan, Xitoy tajribasida "Aqlli sudlar" modeli orqali sud ishlarini yuritishda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va elektron platformalardan samarali foydalanilayotgani raqamli texnologiyalarning huquq sohasidagi amaliy ahamiyatini namoyon etadi. Shu bilan birga, raqamlashuv huquqiy tizim oldiga yangi chaqiriqlarni ham qo'yimoqda. Jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli tengsizlik, algoritmik boshqaruvning shaffofligi va inson huquqlarini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonida huquqiy madaniyatning evolyutsiyasi an'anaviy huquqiy qadriyatlarni saqlagan holda ularni yangi texnologik muhitga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Fuqarolarning raqamli savodxonligi, huquqiy ong darajasi va raqamli madaniyatini rivojlantirish ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil hisoblanadi. Demak, raqamli davrda huquqiy madaniyat nafaqat huquqiy bilimlar majmui, balki insonning raqamli makondagi mas'uliyatli, ongli va huquqiy faoliyatini belgilovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Baranov P.P., Mamychev A.Y., Dremluga R.I., Miroshnichenko O.I. Legal Consciousness and Legal Culture in the Era of Total Digitalization: Theoretical-Methodological and Legal-Technical Problems // *Linguistics and Culture Review*. – 2021. – Vol. 5(S3). – P. 900. DOI: 10.21744/lingcure.v5nS3.1665.
2. Rybakov O. Digital Transformation of the Society and the State: The Importance of Legal Information Culture // *Legal Education and Science*. – 2024. – P. 36–40. DOI: 10.18572/1813-1190-2024-11-36-40.
3. Тоффлер Э. *Смещение власти: значение, богатство и принуждение на пороге XXI века*. – Москва: АСТ, 1998. – 59 с.
4. Рыбаков О. Ю. Правовая информационная культура в условиях цифровой трансформации общества и государства // *Правосудие*. – 2024. – Т. 6. – № 3. – С. 59–74. DOI: 10.37399/2686-9241.2024.3.59-74.
5. Melnikov V., Masolletti M., Zakharova S., Yukhimenko G. Digitalization Processes and Legal Culture. – 2021. SSRN. [SSRN – Digitalization Processes and Legal Culture](#)
6. Reiling A.D. (Dory), Papagianneas S. Lessons from China's Smart Court Reform? // *International Journal for Court Administration*. – 2025. – Vol. 16(1). – P. 1–11. [International Journal for Court Administration](#)